

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

QORAMOLLARNING GIPODERMATOZ KASALLIGI VA PROFILAKTIKASI

Raximov Madaminjon Alijonovich

qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, O'zbekiston

Respublikasi Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Azizov Raxmatillo Olimjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Farg'ona davlat universiteti 2- kurs talabasi

Annotatsiya

Maqolada qoramollarda uchraydigan Gipodermatozlarning biologiyasi, yashash tarsi, ko'payishi va ularga qarshi kurash chora tadbirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: qoramol, kasallik, bo'ka, parazit, invasion.

Kirish

Gipodermatozlar surunkali kechuvchi entomoz kasallik bo'lib, teri osti bo'kalari tomonidan qo'zg'atiladi va parazitlar yashash joylarining yallig'lanishi, organizmning umumiy zaharlanishi hamda hayvon mahsuldorligining kamayishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot ob'yekti. Fermer va aholi honadonlarida parvarishlanayotgan qoramollar tadqiqotning ob'yekti hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Baratov SH.(1972), Yenileyeva N.X.(1978), Axunov X.A.(1967), Muydinov X.K.(1986), A.H.Vahobovl(2019), M.A.Raximov(2013,2015,2017,2018, 2021) kabi olimlarning bergan ma'lumotlariga asosan gipodermatoz qoramolchilik tarmog'iga katta iqtisodiy zarar keltiruvchi invazion kasalliklardan hisoblanib, quyidagilar qayd etiladi: zararlangan qoramol terisi 3-4-navga qabul qilinib, narxi 3-4 marta pasayadi; sigirlarning sut mahsuldorligi 17-25% ga pasayadi; go'sht sifatining yomonlashuvi hisobidan har bir hayvondan o'rtacha 7 kg, o'sishdan qolishi tufayli 15 kg kam go'sht mahsuloti olinadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Tadqiqot natijalari. Fargʻona viloyati Qoʻsh tepa tumanidagi chorvachilik bilan shugʻillanayotgan fermer va aholi honadonlarida parvarishlanayotgan qoramollar oʻrganilganda, ular terisi ostida boʻkalarining 2 ta vakili parazitlik qilayotganligi aniqlandi:

- 1). Hipoderma bovis – oddiy teri osti boʻkasi;
- 2). Hipoderma lineatum – janub teri osti boʻkasi.

Teri osti boʻkalari toʻliq bosqichda rivojlanuvchi hasharotlar guruhiga kirib, ularning toʻla rivojlanishi yil boʻyi davom etishi kuzatildi. Gʻumbaklardan chiqqan boʻkalar uchish va juftlashish qobiliyatiga ega boʻladi. Yetuk boʻkalar oziqlanmaydilar, hayvon organizmida lichinkalik davrida toʻplangan zahira ozuqa hisobiga yashaydi, shuning uchun ularning umri qisqa boʻlib, 3-10 kun, baʼzan havo harorati pasayganida esa 28 kungacha hayot kechiradi. Juftlashish jarayoni tugagandan soʻng urgʻochi boʻkalar tuxum qoʻyish maqsadida hayvonlarni taʼqib qilishi va hayvonlar bu taʼqibdan kuchli bezovtalanib, qochishga harakat qildi. Boʻkalarning urgʻochilari oʻta serpusht boʻlib, hayvon terisiga 800 tagacha tuxum qoʻyadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar hayvon terisi orqali uning tanasiga kiradi va qoramolda gipodermatoz kasalligini keltirib chiqaradi.

Kasallikni davolashda teri ostiga kirgan boʻka lichinkalariga qarshi kurash katta ahamiyatga ega. Bu tadbir teri osti boʻkalari hasharotlarining uchish muddati tugagach oʻtkazilsa, yuqori samaradorlikka erishiladi.

Teri osti boʻkalari hasharotlarining uchishi boshlanishi va tugashi har bir hududning tabiiy iqlim sharoitlariga bogʻliq. Masalan, Markaziy Osiyoda boʻka hasharotining dastlabki erta uchishi Tojikistonning vodiylar zonasida fevral oyida boshlanib, aprelning oʻrtalarigacha davom etadi. Fargʻona vodiysining past tekisliklarida yetuk boʻkalarning uchishi 10 apreldan boshlanib, iyun oxirigacha davom etadi, togʻ oldi zonalarida esa may oyining oʻrtalarida boshlanib, avgust oyining boshlarigacha davom etadi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi tabiiy iqlim sharoitida boʻkalarning uchishi 2 oy davom etadi: janubiy tumanlarda aprelning boshlaridan may oyining oxirigacha davom etsa, shimoliy tumanlarda aprelning oxiridan iyun oyining oʻrtalarigacha davom etadi. Qashqadaryo viloyatining choʻl zonalarida yetuk boʻkalarning uchishi aprelning oʻrtalaridan may oyining oxirigacha davom etsa, togʻli zonalarda mayning oʻrtalaridan boshlanib, iyul oyining boshlarigacha davom etadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi tadqiqot ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qoramollar gipodermatoziga qarshi kurashda har bir hududning tabiiy iqlim sharoitlari va teri osti bo'kalari rivojlanishining biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda teri osti bo'kalarining birinchi bosqich lichinkalariga qarshi insektitsidlarni qo'llab, bo'ka hasharotlari uchish muddatlari tugagach, oldindan ximioterapiya o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xususan, respublikaning vodiy viloyatlarida mazkur tadbir past tekisliklarda iyul oyida, tog' oldi hududlarida avgust-sentabr oylarida, voha viloyatlari sharoitlarida, cho'l zonalarida iyun oyida, tog'li zonalarda iyul-avgust oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy tumanlarida ham iyun oyida, shimoliy tumanlarida iyul oylarida o'tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Баратов Ш. Подкожные оводы крупного рогатого скота в Таджикистане. – Душанбе, Дониш, 1972. с. 137.
2. Vahobov A.N. Virusologiya asoslari. Darslik Toshkent 2019.
3. Енилеева Н.Х. О гиподерматозе крупного рогатого скота в Узбекистане. – Труды Узбекского НИВИ, Ташкент, 1978. Т. XXVIII, с. 57-58.
4. Ахунов Х.А. Особенности биологии возбудителей, эпизоотологии гиподерматозов крупного рогатого скота и разработка мер борьбы с ними в Ферганской долине Узбекской ССР. – Диссертация канд.вет.наук. – Москва, 1967, с. 156.
5. Муйдинов Х.К. Подкожные оводы крупного рогатого скота Каракалпакской АССР и разработка мер борьбы с ними. Автореферат диссертации. Москва, 1986, с. 17.
6. Рахимов М.А., Шерматов М., Хабибуллаев Ф. Технологии рационального использования кормов. Жур.Сельское хозяйство Узбекистана, Ташкент, 2013 № 7, с. 33-34
7. Рахимов М.А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Интенсивная технология повышения молочной продуктивности коров в фермерских хозяйствах. Жур.Сельское хозяйство Узбекистана, Ташкент, 2015 № 1, с. 36-37
8. Рахимов М.А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Влияние разного соотношения зерносенажа и кукурузного силоса на переваримости питательных веществ в рационе бычков привозного скота. Жур.Агро илм, Ташкент, 2017 № 1 с.40



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

9.Рахимов М.А., Юнусов М., Хабибуллаев Ф. Технология кормления привозного скота. Жур.Агро илм, Ташкент, 2018 № 2 с.65-66

10.Рахимов М.А., Абдурасулов Х. Интенсивная технология откорма молодняка привозного скота. Жур. Научный вестник ФерГУ.-Фергана, 2018, № 6 с.145-146

11.Рахимов М.А. Влияние технологии кормления на рост и развитие бычков, выращиваемых на мясо. . Жур.Агро илм, Ташкент, 2021 № 5 с.65.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

